P U D R A T SH A R T N O M A S I

2022 y. «9» 12 997-7-96-XT/2022-son Kattaqo'rg'on t.

"ZAFAR TEXNIKA PROFIL" MCHJ (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbar **N. Karimova** bir tomondan va **Kattaqo'rg'on tumani xalq ta'lim bo'limi** (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan o'zining nizomi asosida ish yurituvchi tashkilot rahbari S. Mingboyev ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Pudratchi" «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha-smeta hujjatlariga asosan **Kattaqo'rg'on tumani Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 6-umumta'lim maktabiga joriy ta'mirlash ishlari**ni bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olish hamda shartnoma asosida to'lovlarni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1.»Buyurtmachi» tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan **Kattaqo'rg'on tumani Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 6-umumta'lim maktabiga joriy ta'mirlash ishlari**ning qiymati QQS solig'i bilan jami 182255736 (Bir yuz sakson ikki million ikki yuz ellik besh ming etti yuz o'ttiz olti) so'mni tashkil qildi.

2.2. Qurilish ishlari avans mablag'lari "Pudratchi"ning tegishli hisobvarag'iga kelib tushgandan so'ng boshlanadi.

2.3. Qurilish ishlarining tugashi vaqti 31-dekabr 2022-yil.

3. QURILISH ISHLARINI BOSHLASH , BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Qurilish ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avans mablag'lari "Pudratchi"ning tegishli hisobvarag'iga kelib tushgandan so'ng qurilish ishlari boshlanadi.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi 241-sonli Qaroriga asosan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha so'mmasi bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi. Taraflar mazkur Qarorga amal qilishi shart.

3.3. «Buyurtmachi» tomonidan qurilish ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Qurilishni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Qurilishni tugallab foydalanishga topshirish ikki tomonlama hisobvaraq-faktura tasdiqlangandan so'ng tqurilish ishlari tugatilgan deb hisoblanadi.

4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi 182255736 (Bir yuz sakson ikki million ikki yuz ellik besh ming etti yuz o'ttiz olti) **so'm**ni tashkil etadi. «Buyurtmachi» qurilish ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 %, ya'ni 54676720 **(Ellik to'rt million olti yuz etmish olti ming etti yuz yigirma) so'm** miqdorida oldindan to'laydi va bu oldindan to'lov shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kunida amalga oshirilishi kerak.

Кўриб чиқган юрист: RUSTAMOV MIRJALOL ORIP O'G'LI. Ҳужжат рақами: BM5377755120